

**ADVOKAT JAVOBGARLIGI INSTITUTINING HUQUQIY TABIATI:  
ILMIY-NAZARIY TAHLIL**

**Jo'rayeva Marjonaxon Zuhridin qizi**

Toshkent davlat yuridik universiteti

“Advokatlik faoliyati yo‘nalishi” magistranti

E-mail: [jurayevamarjona545@gmail.com](mailto:jurayevamarjona545@gmail.com)

***Annotatsiya:** mazkur maqolada advokat javobgarligi institutining huquqiy tabiati va nazariy asoslari zamonaviy sud-huquq islohotlari kontekstida kompleks tarzda tadqiq etiladi. Yuridik javobgarlik va kasbiy javobgarlik tushunchalariga oid ilmiy yondashuvlar tahlil qilinib, advokat javobgarligining huquqiy tabiatini belgilovchi to‘rtta o‘ziga xos belgi - kasbiy-funksional belgi, ishonch munosabatlari belgisi, normativ-huquqiy asoslanganlik belgisi va ko‘p qirrali tabiat belgisi - ilmiy jihatdan asoslab beriladi. Tadqiqot natijasida advokat javobgarligiga mualliflik ta’rifi taklif etiladi.*

***Kalit so‘zlar:** advokat, advokat javobgarligi, huquqiy javobgarlik, kasbiy javobgarlik, huquqiy tabiat, intizomiy javobgarlik, fuqarolik-huquqiy javobgarlik, advokatlik siri, ishonch munosabatlari.*

**KIRISH**

O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan sud-huquq islohotlari sharoitida advokatura institutining huquqiy tizimdagi o‘rni tobora kengayib bormoqda. "O‘zbekiston-2030" strategiyasida advokatura institutining salohiyatini tubdan oshirish va malakali huquqiy yordam ko‘rsatish tizimini rivojlantirish ustuvor vazifa sifatida belgilangan. Advokatlik faoliyatining samaradorligi nafaqat advokatlarning huquqiy maqomi, balki ularning zimmasiga yuklatilgan kasbiy majburiyatlar va mazkur majburiyatlarni buzganlik uchun javobgarlik institutining qanchalik mukammal huquqiy asosga ega ekanligi bilan ham bevosita bog‘liqdir. 2019-2023-yillarda advokatlarning xatti-harakatlari yuzasidan 5759 ta murojaat

kelib tushgan bo‘lib, shundan 283 ta advokat litsenziyasining amal qilishi muayyan muddatga to‘xtatilgan, 108 ta advokatning litsenziyasi tugatilgan, jinoiy javobgarlikka tortilganligi munosabati bilan litsenziyasi tugatilgan advokatlar soni esa 89 nafarni tashkil qilgan.[1] Ushbu statistik ma’lumotlar mavjud javobgarlik mexanizmining hali to‘liq samarali ishlamayotganligini ko‘rsatadi.

**Tadqiqotning dolzarbligi** shundan iboratki, advokat javobgarligi instituti bir tomondan advokatning kasbiy mustaqilligini ta'minlashga xizmat qilsa, ikkinchi tomondan uning faoliyatida qonuniylik va intizomni mustahkamlashga qaratilgan muhim huquqiy vosita hisoblanadi. Amaldagi qonunchilikda advokatning professional javobgarligi masalasi to‘liq tartibga solinmagan, mazkur sohadagi nazariy tadqiqotlar hali yetarli darajada rivojlanmagan. Shu bois advokat javobgarligining huquqiy mohiyati, turlari va nazariy asoslariga oid yaxlit ilmiy konsepsiya shakllanmagan.

**Tadqiqotning maqsadi** advokat javobgarligi institutining huquqiy tabiatini va nazariy asoslarini ilmiy jihatdan tadqiq etish, uning o‘ziga xos belgilarini tizimli ravishda ochib berish hamda advokat javobgarligiga mualliflik ta'rifini ishlab chiqishdan iborat.

### **TADQIQOT MATERIALI VA METODLARI**

Tadqiqotda O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, “Advokatura to‘g‘risida”gi Qonun, “Advokatlik faoliyati kafolatlari va advokatlarning ijtimoiy himoyasi to‘g‘risida”gi Qonun, Advokatlarning kasb etikasi qoidalari, shuningdek, xorijiy davlatlar qonunchiligi normativ-huquqiy asos sifatida qo‘llanildi. Ilmiy manba sifatida X.T.Odilqoriyev, Sh.A.Saydullayev, R.G.Melnichenko, I.Yu.Zagoruyko, Zh.V.Esterleyn, S.Gavrilov, A.A.Fayyer, S.L.Sotnikov, Bitsay, I.Palvanov kabi olimlarning asarlari tahlil qilindi. Shuningdek, S.B.Qodiraliyev va

D.Nurumovning O‘zbekistondagi advokatlarning intizomiy javobgarligiga oid ilmiy ishlari tadqiqotning asosiy manbalaridan biri sifatida xizmat qildi.[2][3]

Tadqiqotda tahliliy, qiyosiy-huquqiy, tarixiy, mantiqiy hamda tizimiy metodlardan foydalanildi. Tahliliy metod orqali ilmiy adabiyotlar va normativ-huquqiy hujjatlar o‘rganildi, qiyosiy-huquqiy metod yordamida turli olimlarning yondashuvlari solishtirildi, mantiqiy metod asosida esa xulosalar tizimli ravishda umumlashtirildi.

### **TADQIQOT NATIJALARI**

Huquqiy javobgarlik institutining nazariy asoslarini tahlil qilishda olimlar o‘rtasida turli yondashuvlar mavjudligi aniqlandi. X.T.Odilqoriyev yuridik javobgarlikni "huquqbuzarlik sodir etgan shaxsga nisbatan protsessual tartibda qonunchilikda belgilangan davlat majburlov choralarini qo‘llash" sifatida ta'riflaydi.[4] Sh.Saydullayev esa "yuridik javobgarlik - huquqbuzarga nisbatan huquq normalarida ko‘zda tutilgan sanksiyalar asosida davlatning majburlov choralarini qo‘llash" deb belgilaydi.[5] O.Husanboyev fikricha, "yuridik javobgarlik huquq normalari, qoidalariga binoan huquqni qo‘llovchi organning qaroriga asoslanib yuzaga keladi va uning faktik asosi huquqbuzarlik hisoblanadi".[6] Malko esa javobgarlikni ijobiy va salbiy tarzda ajratib, salbiy yuridik javobgarlikni jamiyat va davlatning shaxs tomonidan sodir etilgan aybli, huquqqa xilof harakatga nisbatan reaksiyasi sifatida ta'riflaydi.[7]

Yuridik javobgarlikdan farqli o‘laroq, kasbiy javobgarlik tushunchasi nisbatan yangi ilmiy tadqiqot sohasi hisoblanadi.[8] A.A.Fayyer kasbiy javobgarlikni "litsenziya asosida faoliyat yurituvchi shaxs tomonidan o‘z majburiyatlarini to‘liq yoki lozim darajada bajarmasligi natijasida uchinchi shaxslarga yetkazilgan zararni qoplashga qaratilgan davlat majburlovi chorasi"

sifatida ta'riflaydi.[9] S.L.Sotnikov fikricha, kasbiy javobgarlik “o‘z ixtisosi doirasida faoliyat yurituvchi subyektga nisbatan, ushbu faoliyatning salbiy natijasi - zarar yetkazish munosabati bilan yo‘qotishlarni qoplash, jarima to‘lash va ma’naviy zararni kompensatsiya qilish shaklida sanksiyalar qo‘llash” sifatida ko‘rib chiqilishi zarur.[10] Biroq ushbu yondashuvlar kasbiy javobgarlikning mohiyatini to‘liq ochib berolmaydi. R.G.Melnichenko fikricha, kasbiy javobgarlik institutini intizomiy, ma’muriy, jinoiy va fuqarolik-huquqiy javobgarlik turlarining sintezi mahsuli sifatida ta’riflash lozim bo‘lib, u ularning hech biriga to‘liq kirmaydi.[11] I.Palvanov o‘z ilmiy ishida "har qanday professional faoliyat ushbu faoliyat bilan shug'ullanuvchining o‘z majburiyatini bajarmasligi yoki lozim darajada bajarmasligi oqibatida yuzaga keladigan yuridik javobgarlikka asoslanishi lozim" degan muhim xulosaga keladi.[12]

Advokat javobgarligining kasbiy javobgarlik tizimidagi o‘rnini aniqlashda Bitsayning yondashuvi e’tiborga molik. Muallif advokatning kasbiy javobgarligini ikki ma’noda ko‘rib chiqishni taklif etadi: tor ma’noda - advokatning kasbiy javobgarligi bu uning intizomiy javobgarligidir; keng ma’noda esa - advokatning kasbiy javobgarligi spetsifik yuridik javobgarlik turi bo‘lib, intizomiy, fuqarolik-huquqiy, ma’muriy va jinoiy javobgarlik elementlarini o‘zida birlashtiradi.[13] Bizningcha, keng ma’nodagi yondashuv ilmiy jihatdan maqbulroq, chunki zamonaviy huquqiy munosabatlar murakkablashib borayotgan sharoitda advokat faoliyati natijasida kelib chiqadigan oqibatlar faqat ichki intizomiy choralar bilan chegaralanib qolmaydi.

Advokat javobgarligining huquqiy tabiatini belgilovchi to‘rtta o‘ziga xos belgi ilmiy jihatdan asoslab berildi. Birinchidan, kasbiy-funksional belgi - advokat javobgarligi faqat uning advokatlik faoliyatini amalga oshirish jarayonida, ya'ni

kasbiy vazifalari va vakolatlari doirasida harakat qilgan holatlarida yuzaga keladi. E.A.Lukasheva ta'kidlaganidek, shaxsning huquqiy maqomi davlat tomonidan normativ-huquqiy hujjatlarda mustahkamlangan huquq va majburiyatlar tizimidir.[14] A.D.Boykovga ko'ra esa, advokatning maqomi advokatlik to'g'risidagi qonunchilik, protsessual normalar va korporativ aktlar bilan belgilanadi.[15] Demak, advokatning javobgarligi ham aynan shu maqom doirasida, ya'ni unga yuklatilgan kasbiy majburiyatlarning buzilishi bilan bog'liq holda yuzaga keladi.

Ikkinchidan, ishonch munosabatlari belgisi - advokat javobgarligining huquqiy tabiati ishonch bildiruvchi shaxs bilan o'rnatilgan ishonch munosabatlaridan kelib chiqadi. Advokatlik sirining oshkor etilishi, topshiriqning bajarilmasligi yoki lozim darajada bajarilmasligi advokat javobgarligini yuzaga keltiruvchi asosiy holatlardan biri hisoblanadi. Kasb etikasi qoidalariga ko'ra, advokatlik siri advokat faoliyatida ustuvor ahamiyatga ega bo'lib, siri saqlash muddati vaqt bilan cheklanmaydi.

Uchinchidan, normativ-huquqiy asoslanganlik belgisi - advokatni javobgarlikka tortish faqatgina qonun hujjatlarida, advokatlik faoliyatini tartibga soluvchi maxsus normativ manbalarda hamda kasbiy etika qoidalarida aniq belgilangan asoslar va tartib doirasida amalga oshiriladi. I.Yu.Zagoruyko va Zh.V.Esterleyn ta'kidlashicha, advokatning kasbiy javobgarligini tartibga soluvchi mustaqil manbalarning mavjudligi va maxsus protsessual tartibning belgilanganligi ushbu javobgarlikni mustaqil yuridik javobgarlik turi sifatida e'tirof etishning inkor etib bo'lmaydigan belgisi hisoblanadi.[16]

To'rtinchidan, ko'p qirrali (kompleks) tabiat belgisi - advokat javobgarligi bir vaqtning o'zida bir necha huquq tarmoqlari bilan bog'liq bo'lib, intizomiy,

fuqarolik-huquqiy, ma'muriy va jinoyat-huquqiy javobgarlik turlarining o'zaro munosabati va chegaralari advokat javobgarligining tizimiy tuzilishini shakllantiradi. S.Gavrilov fikricha, advokatning huquqiy maqomini shakllantiruvchi tizim elementlaridan biri sifatida uning javobgarligi namoyon bo'ladi.[17]

### **NATIJALAR TAHLILI**

Yuqorida bayon etilgan to'rtta belgi o'zaro bog'liq bo'lib, advokat javobgarligining yaxlit huquqiy tabiatini tashkil etadi. Kasbiy-funksional belgi javobgarlikning subyektiv doirasini - faqat advokatlik faoliyati doirasidagi xatti-harakatlarni - belgilaydi. Ishonch munosabatlari belgisi javobgarlikning manbasini - advokat va mijoz o'rtasidagi maxsus ishonch munosabatlarini - ko'rsatadi. Normativ-huquqiy asoslanganlik belgisi javobgarlikka tortishning huquqiy asosini - aniq qonuniy mezonlarni - ta'minlaydi. Ko'p qirrali tabiat belgisi esa javobgarlikning turli huquq tarmoqlari bilan kesishishini ifodalaydi.

Mazkur to'rtta belgi majmuasi advokat javobgarligini oddiy yuridik javobgarlikdan ajratib turuvchi asosiy mezon bo'lib xizmat qiladi. Bitsay tomonidan taklif etilgan keng ma'nodagi yondashuv bu belgilar tizimini to'liq qamrab oladi, chunki u advokat javobgarligini faqat intizomiy choralar bilan cheklab qo'ymasdan, ko'p qirrali yuridik hodisa sifatida talqin etadi. Melnichenko tomonidan asoslangan turli javobgarlik turlarining sintezi kontseptsiyasi ham mazkur belgilar bilan organik uyg'unlikda namoyon bo'ladi. Shu nuqtai nazardan, advokat javobgarligini yagona huquq tarmog'i doirasida talqin etish mumkin emas - u turli javobgarlik turlarining kesishgan nuqtasida shakllanadigan, o'ziga xos xususiyatlarga ega kompleks huquqiy hodisa sifatida namoyon bo'ladi.

Tadqiqot natijasida advokat javobgarligiga quyidagi mualliflik ta'rifi taklif etiladi:

**Advokatning kasbiy javobgarligi - bu advokatning advokatlik faoliyatini amalga oshirish jarayonida qonun hujjatlari, kasb etikasi qoidalari, advokat qasamyodi hamda ishonch bildiruvchi shaxs bilan tuzilgan shartnomadan kelib chiqadigan majburiyatlarni buzganligi natijasida, belgilangan tartibda intizomiy, fuqarolik-huquqiy, ma'muriy yoki jinoyat-huquqiy choralar qo'llanilishida namoyon bo'ladigan kompleks huquqiy oqibatlar tizimidir.**

Mazkur ta'rif advokat javobgarligining to'rtta asosiy belgisini o'zida mujassamlashtiradi: kasbiy faoliyat doirasida yuzaga kelishi (kasbiy-funksional belgi), shartnoma va qasamyodga asoslanishi (ishonch munosabatlari belgisi), belgilangan tartibda qo'llanilishi (normativ-huquqiy asoslanganlik belgisi) hamda turli javobgarlik turlarini qamrab olishi (ko'p qirrali tabiat belgisi).

## XULOSA

Olib borilgan tadqiqot shuni ko'rsatdiki, advokat javobgarligi advokatlik faoliyatining huquqiy tartibga solinishida markaziy o'rin tutuvchi, tizimli va kompleks huquqiy institut bo'lib, u advokatning kasbiy maqomi, mustaqilligi hamda kasb etikasi talablaridan kelib chiqadigan majburiyatlar bajarilmagan taqdirda yuzaga keladigan huquqiy oqibatlar tizimini ifodalaydi. Mazkur institutning huquqiy tabiati uning to'rtta o'ziga xos belgisi - kasbiy-funksional belgi, ishonch munosabatlari belgisi, normativ-huquqiy asoslanganlik belgisi va ko'p qirrali tabiat belgisi - orqali namoyon bo'ladi. Tadqiqot natijasida taklif etilgan mualliflik ta'rifi advokat javobgarligi institutini intizomiy, fuqarolik-

huquqiy, ma'muriy va jinoyat-huquqiy elementlar kesishmasida shakllanadigan murakkab huquqiy hodisa sifatida ifodalaydi. Amaldagi "Advokatura to'g'risida"gi Qonunda "advokat javobgarligi" tushunchasining to'liq ta'riflanmaganligi, javobgarlik turlarini farqlash mezonlari va ularning o'zaro nisbatining normativ darajada aniqlanmaganligi mavjud huquqiy bo'shliqning asosiy ko'rinishlari sifatida aniqlanadi. Mazkur bo'shliqlarni bartaraf etish uchun qonunchilikka advokat javobgarligining aniq ta'rifi, uning turlari va qo'llanilish mezonlarini mustahkamlash zarurdir.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi advokatlar palatasining 2018-2023-yildagi faoliyati yuzasidan ma'lumotnoma // Advokat press gazetasi. - 2023-yil oktyabr. - B. 6. <https://paruz.uz/uploads/2023/09/malumotnoma.pdf>.
2. Qodiraliyev S.B. Advokatning intizomiy javobgarligi masalalari. - 29-34-bet. <https://inlibrary.uz/index.php/improvement-law-institute/article/view/16667>.
3. Nurumov D.J. Advokat tomonidan tadbirkorlik subyektlariga yuridik yordam ko'rsatishning tashkiliy-huquqiy masalalari: PhD dissertatsiya avtoreferati. - Toshkent, 2021. - 20-bet.
4. Davlat va huquq nazariyasi: Darslik / X.T.Odilqoriyev, I.T.Tulteev va boshq. - T.: "Sharq", 2009. - 592 b. 538-bet.
5. Davlat va huquq nazariyasi: darslik / Sh.A.Saydullayev. - T.: TDYU nashriyoti, 2024. - 264 b. 218-bet.

6. Davlat va huquq nazariyasi: Darslik / R.Yusuvaliyeva va boshqalar. - T.: JIDU, 2019. - 308 b. 267-bet.
7. Малько А.В., Нигров В.В., Шувалов К.В. Теория государства и права: элементарный курс. - М.: КНОРУС, 2019. - 240 с. С. 173.
8. Voloshina L. Professional'naya otvetstvennost' advokata // Legea si Viata jurnali. - 2016. - Iyun. - 1-bet.
9. Fayyer O.A. Kasbiy javobgarlik tushunchasi va uning yuzaga kelish asoslari // Forum prava. - 2009. - №3. - В. 627–633.
10. Sotnikov S.L. Strahovanie professional'noy otvetstvennosti: avtoref. dis. kand. yurid. nauk. - Tomsk, 2010. - 26 s.
11. Melnichenko R.G. Professional'naya otvetstvennost' advokata: monografiya. - Volgograd, 2010. - 168 s.
12. Palvanov I.T. Kasbiy javobgarlikni majburiy sug'urta qilishni fuqarolik-huquqiy tartibga solinishi: PhD avtoreferati. - Toshkent, 2024. - 10-bet.
13. Біцай А.В. Організаційно-правові засади участі адвоката в медіації: дис. канд. юрид. наук. - К., 2016. - 261 с.
14. Проблемы общей теории права и государства: учеб. для вузов / под общ. ред. В.С.Нерсисянца. - М.: Норма, 2004.
15. Бойков А.Д. Адвокатура и адвокаты. - М.: Юрлитинформ, 2006. - 288 с.
16. Загоруйко И.Ю., Эстерлейн Ж.В. Институт профессиональной ответственности адвокатов. - С. 142–146.  
[https://www.elibrary.ru/download/elibrary\\_38353838\\_39142281.pdf](https://www.elibrary.ru/download/elibrary_38353838_39142281.pdf).
17. Гаврилов С.О., Карнаухова А.А. Юридическая ответственность как элемент правового статуса адвоката. - С. 11–15.